"O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT
MILLIY BANKI"
AKSIYADORLIK JAMIYATI
**MIRZO ULUG'BEK BANK
XIZMATLARI MARKAZI**

MIRZO ULUGBEK BRANCH
JOINT-STOCK COMPANY
NATIONAL BANK FOR FOREIGN
ECONOMIC ACTIVITY
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100000, Toshkent shahri, Mustaqillik shox ko'chasi, 66 uy
Tel: (78) 147-15-34, e-mail: mirzo-ulugbek_mail@nbu.uz

66, Mustakillik prospect, Tashkent city, 100000
Tel: (78) 147-15-34, e-mail: mirzo-ulugbek_mail@nbu.uz

"O'zmilliybank" AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi "Mirzo-Ulug'bek" bank xizmatlari markazida o'tkazilgan yig'ilish

B A Y O N N O M A S I № 23

"24" aprel 2026 yil **Toshkent shahri**

Raislik qildi: "O'zmilliybank" AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi "Mirzo-Ulug'bek" bank xizmatlari markazi boshqaruvchisi birinchi o'rinbosari J.Y.Aripov.

Qatnashdilar: Toshkent shahar Bosh boshqarmasining "Mirzo-Ulug'bek" BXM bo'yicha mas'ul xodimlari va "Mirzo-Ulug'bek" BXM xodimlari.

KUN TARTIBI:

- "O'zmilliybank" AJ "Mirzo-Ulug'bek" BXM xodimlari o'rtasida odob-axloq qoidalariga rioya etilishi va korrupsiyaga nisbatan "murosasizlik" madaniyatini shakllantirish;
- ""O'zmilliybank" AJ xodimlariga totalizator va azart o'yinlar o'ynashni taqiqlash to'g'risidagi 2020-yil 10-avgustdagi 126-sonli Buyrug'i" bilan tanishish;
- "O'zmilliybank" AJ "Mirzo-Ulug'bek" BXMda Yaqin Sharq davlatlari, offshor hududlar va terrorchilik faolligi yuqori bo'lgan hududlar bilan bo'g'liq bank operatsiyalari bo'yicha jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirish bilan bog'liq risklarni minimallashtirish yuzasidan chora tadbirlarini amalga oshirish;
- "O'zmilliybank" AJ "Mirzo-Ulug'bek" BXM xodimlari o'rtasida mehnat intizomini mustahkamlash.

Yig'ilishni "O'zmilliybank" AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi "Mirzo-Ulug'bek" bank xizmatlari markazi boshqaruvchisi birinchi o'rinbosari J.Y.Aripov tomonidan ochilib, kun tartibiga kiritilgan masalalar bilan tanishtirdi.

Yig'ilish mavzusidan kelib chiqib, korrupsiya-davlatning demokratik va qonun ustuvorligiga putur yetkazadigan, inson huquqlari buzilishiga olib keladigan, iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qiladigan, taraqqiyot sifatini yomonlashtiradigan, odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa shu kabi jinoyatlarning ildiz otib ketishiga "sharoit" yaratib beradigan salbiy illatlardan biri ekanligi to'g'risida tushunchalar berib, ushbu mavzu bo'yicha Toshkent shahar Bosh boshqarmasining Xavfsizlik, rejim va axborotni himoyalash Boshqarmasi bosh mutaxassisi D.D.Abduraxmanovga so'z navbatini berildi.

O‘z navbatida D.D.Abduraxmanov ushbu zararli illat katta va kichik, badavlat yoki kambag‘al bo‘lishidan qat’iy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydigan, zararli illat ekani, uni bartaraf etish bo‘yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsada, hanuzgacha uni bartaraf etish katta mashaqqat talab etilayotgani yetkazilib, O‘zbekistan Respublikasi BMTning “Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiya”siga 2008-yil 7-iyulda qo‘shilgani, mazkur qonunga muvofiq Bosh prokuratura, Ichki ishlar Vazirligi va boshqa vakolatli idoralar tomonidan korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar amalga oshirayotgani va qonun ustuvor-jazo muqarrar prinsipini ta’minlayotgani yetkazilib, barcha bank xodimlari o‘zlarning lavozim majburiyatlariga asosan ish olib borishi, ish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2022-yil 14-oktyabrdagi 595-son “Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-ahloq qoidalariga rioya etilishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi qarori va “O‘zmilliybank” AJning korporativ etika kodeksiga qat’iy amal qilishlari tushuntirildi.

Bankning har bir xodimi yuqoridagi me’yoriy xujjatlarga amal qilsa, to‘g‘ri va halol ishlasa, oilasini o‘ylasa, hech qachon uyalib qolmasligi, inson oilada ota-ona yoki yashash joyidagi ijtimoiy muhitda halollik vaksinasi bilan emlanishi, halollik vaksinasi-har bir inson ongi va qalbiga amaldagi qonunlarga so‘zsiz itoat qilib yashashga o‘rgatish bilan bog‘liq bo‘lgan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan bilimlar ekanligi tushuntirildi.

Bundan tashqari ma’ruzachi tomonidan so‘ngi vaqtlarda kiberjinoyatchilik holatlari ortib borayotgani e’tiborga olinib, bankga murojaat qilgan tashkilot ma’sullari va fuqarolarga plastik kartalardan to‘g‘ri foydalanish qoidalarini tushuntirish, shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash, sms yoki telegramm kanallari orqali aldab pul yechib olish holatlari va ayrim bank xizmatlari markazlarida sodir bo‘layotgan jinoiy holatlar haqida tushuncha berildi va ogohlikka chaqirildi.

Shundan keyin yig‘ilish raisi tomonidan so‘z “Mirzo-Ulug‘bek” BXM bo‘yicha Compliance officer S.S.Otajanovga berildi.

O‘z navbatida S.S.Otajanov tomonidan “O‘zmilliybank” AJ xodimlariga totalizator va azart o‘yinlar o‘ynashni taqiqlash to‘g‘risidagi 2020-yil 10-avgustdagi 126-sonli Buyrug‘i bilan to‘liq tanishtirilib, bankning barcha xodimlari “1xbet”, “PokerStars” va boshqa onlayn totalizator va azart o‘yinlarini o‘ynash bilan bog‘lik xatti-harakatlari Bank xodimi ish etikasi va ishdagi odob-axloq tamoillariga zid ekanligi va qat’iy takidlanishi, bunday holatlar “O‘zmilliybanki” AJ Ichki mehnat tartibi qoidalarini bir marta buzganlik uchun mehnat shartnomasi bekor qilish uchun asos bo‘lib hisoblanishi to‘g‘risida ogohlantirildi.

Totalizator va azart o‘yinlarining zararlari oqibatlari quyidagi holatlarda namoyon bo‘lishi ya’ni, halol mehnat qilmasdan tasodifiy omad hisobiga pul topish odatining shakllanishi, dangasalikka ko‘nikish, o‘rganib qolish, xuddi giyohvand moddalar singari, qimor o‘yinlari insonni qamrab olashi va asta sekin o‘z domiga torta boshlashi tushintirildi. Ba’zan mana shunday mayl haddan ziyod o‘rganishga, ya’ni o‘yinga berilib ketishga olib borishi, so‘kinish, uyat so‘zlar aytish, oila va bolalar oldidagi majburiyatlarga e’tiborsiz bo‘lib qolish, oilalarning buzilishiga, insonlarni jinoyatga yetaklab, o‘g‘rilik, o‘z-o‘zini o‘ldirish, amaldorlarga pora berishga, ularni esa pora hisobidan yashashga o‘rgatishi kabi illatlarga sabab bo‘lishi mumkinligi batafsil tushuntirildi.

Shuningdek S.S.Otajanov tomonidan Yaqin sharq davlarlaridagi geosiyosiy qarama-qarshiliklar kuchayishi sharoitida Yaqin Sharq davlatlari *(BAA, Bahrayn, Falastin, Iordaniya, Iroq, Isroil, Livan, Qatar, Quvayt, Saudiya Arabistoni, Suriya, Ummon, Yaman)*, offshor hududlar va terrorchilik faolligi yuqori bo‘lgan hududlar bilan bo‘g‘liq bank operatsiyalari bo‘yicha jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirish bilan bog‘liq risklarni minimallashtirish maqsadida Yaqin Sharq davlatlari offshor hududlar va terrorchilik faolligi yuqori bo‘lgan hududlar bilan bog‘liq mijozlar va operatsiyalarni yuqori darajadagi tavakkalchilik toifasiga kiritish va ularga nisbatan “Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qing‘ir qurolini taqratishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalari”ning (ro‘yxat raqami 2886,

23.05.2017-yil) 24-bandiga muvofiq lozim darajada tekshirishning kuchaytirilgan chora-taqdiblarini ko'rish lozimligi aytib o'tildi.

Shuningdek S.S.Otajanov tomonidan yig'ilish qatnashchilariga O'zbekiston Respublikasi hududidan uchinchi tomon sifatida foydalanishning oldini olish doirasida Yaqin Sharq davlatlari rezidenti bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki O'zbekiston Respublikasi hududida yashab kelayotgan Eron diasporasi vakillari tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiyalar doirasida O'zbekiston Respublikasi hududidan Yaqin Sharq davlatlariga, offshor hududlar va terrorchilik faolligi yuqori bo'lgan hududlarga yo'naltirilayotgan moliyaviy mablag'lar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasidan uchunchi tomon sifatida foydalanish urunishlarida mablag' faqat komplayens nazorat tadbirlari, shu jumladan, lozim darajada tekshirishning kuchaytirilgan chora-tadbirlari to'liq amalga oshirilgandan so'ng o'tkazishni ta'minlash lozimligi tushuntirildi.

Yig'ilish yakunida bank boshqaruvchisi birinchi o'rinbosari J.Y.Aripov tomonidan, bankning har bir xodimi yuqoridagi me'yoriy xujjatlarga va odob-axloq qoidalariga qat'iy rioya qilishlari, mehnat faoliyati davomida va ishdan tashqari vaqtlarida bank xodimining obro'siga putur etkazishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlardan tiyilish, axloq normalariga doimiy rioya qilish, barcha xodimlar o'z ustida mustaqil ishlab, kasb mahoratini, siyosiy va huquqiy bilimlarini oshirib borishlari, halol, adolatli va kamtar bo'lishi, o'z xizmat vakolatlarini jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini ko'zlab bajarish yoki bajarmaslik evaziga ulardan biron-bir mukofot, foyda yoki sovg'alar olmasligi hamda barcha me'yoriy xujjatlarga qat'iy amal qilishi batafsil tushuntirildi.

Yuqoridagi masalalar atroflicha muhokama qilindi va kun tartibidagi masala yuzasidan majlis

QAROR QILADI:

1. "O'zmilliybanki" AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Xavfsizlik, rejim va axborotni himoyalash Boshqarmasi bosh mutaxassisi D.D.Abduraxmanovning ma'ruzasidan to'g'ri xulosa chiqarsin va kelgusida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha barcha bo'lim boshliqlari tomonidan yosh xodimlari bilan "Korrupsiyaga qarshi kurashish" va "Bank siri" to'g'risida qonunlarni o'qib o'rganishlari nazorat qilinsin va korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosobatlarni shakllantirish maqsadida yakka tartibda tarbiyaviy suhbatlar o'tkazilsin.

2. Xavfsizlik, rejim va axborotni himoyalash Boshqarmasi bosh mutaxassislari D.D.Abduraxmanov hamda Xodimlar bilan ishlash Boshqarmasi bosh mutaxassisi L.V.Fominovalar tomonidan "O'zmilliybank" AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi "Mirzo-Ulug'bek" BXMda ishlayotgan xodimlar bilan korrupsiyaga qarshi kurashishga oid mavzularda suhbatlar o'tkazilsin va asosiy e'tiborni ularni "halollik immuniteti" bilan emlashga va korrupsiyaga toqatsiz ruhda tarbiya qilishga alohida e'tibor qaratsin.

3. ""O'zmilliybank" AJ xodimlariga totalizator va azart o'yinlar o'ynashni taqiqlash to'g'risidagi 2020-yil 10-avgustdagi 126-sonli Buyrug'i" bilan to'liq tanishtirilib, bankning barcha xodimlari "1xbet", "PokerStars" va boshqa onlayn totalizator va azart o'yinlarini o'ynash bilan bog'lik xatti-harakatlari "O'zmilliybanki" AJ Ichki mehnat tartibi qoidalarini buzganlik hisoblanib xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilishi mumkinligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. "Mirzo-Ulug'bek" BXM bo'yicha Compliance officer S.S.Otajanov tomonidan Yaqin Sharq davlatlari offshor hududlar va terrorchilik faolligi yuqori bo'lgan hududlar bilan bog'liq mijozlar va operatsiyalarni yuqori darajadagi tavakkalchilik toifasiga kiritish va ularga nisbatan "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qing'ir qurolini taqratishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari"ning (ro'yxat raqami 2886, 23.05.2017-yil) 24-bandiga muvofiq lozim darajada tekshirishning kuchaytirilgan chora-taqdirlari amalga oshirilsin.

5. “Mirzo-Ulug‘bek” BXM bo‘yicha bevosita mijozlarga xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududidan uchinchi tomon sifatida foydalanishning oldini olish doirasida Yaqin Sharq davlatlari rezidenti bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki O‘zbekiston Respublikasi hududida yashab kelayotgan Eron diasporasi vakillari tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiyalar doirasida O‘zbekiston Respublikasi hududidan Yaqin Sharq davlatlariga, offshor hududlar va terrorchilik faolligi yuqori bo‘lgan hududlarga yo‘naltirilayotgan moliyaviy mablag‘lar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasidan uchunchi tomon sifatida foydalanish urunishlarida mablag‘ faqat komplayens nazorat tadbirlari, shu jumladan, lozim darajada tekshirishning kuchaytirilgan chora-tadbirlari to‘liq amalga oshirilgandan so‘ng o‘tkazish ta’minlansin.

6. Ushbu bayonnoma ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Yig‘ilish Raisi: **J.Y.Aripov**

Yig‘ilish kotibi: S.S.Otajanov

“O‘zmilliybank” AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi “Mirzo-Ulug‘bek” bank xizmatlari markazida 2026 yil 24 aprelda o‘tkazilgan yig‘ilish yuzasidan

№	Таништирилди	Имзо
1	Отпанурозова Шолсанем	
2	Ешубова Н Б	
3	Саидова Н	
4	Юрканова А	
5	Рузакова М	
6	Сайдазимова Ш	
7	Ризаева Ф	
8	Ишмитова Ю	
9	Юлдашева Ф	
10	Рашидханова А	
11	Мирахмедова Н	
12	Кадирова О.	
13	Мурахмедова Ф	
14	Мусанбаев А.А.	
15	Мамтожиев М. Ш.	
16	Рахматова М Р.	
17	Шарипова Л.В	
18	Ульмонова У.М	
19	Якшуратова М Т	
20	Касимова Н.	
21	Нуриддинова Ф	
22	Якубова Ш	
23	Ахмедова Д.Ш.	
24	Шаниязова М	
25	Эдгарова Ш Б	
26	Тураева М.	
27	Бойназова Ф.	
28	Сайфиддинова. И	

29	Абдурахмонов Ф.	
30	Нурулласв Б.	
31	Турдунов. Р	
32	Хайдаров. Х.	
33	Абдувалиев А	
34	Максудалиев И	
35	Бойев Ahlidin	
36	Расулов С	
37	Маматуров У	
38		
39		
40		
41		
42		
43		
44		
45		
46		
47		
48		
49		
50		
51		
52		
53		
54		
55		
56		